



UDK: 316.35:334.72:330.34

Abduqodir ABDULBOQIYEV,

Mustaqil tadqiqotchi, Farg'ona davlat universiteti, Farg'ona, O'zbekiston

E-mail:mr.ganiev76_fsu@inbox.ru, ORCID: 0009-0006-6050-2098

FarDU dotsenti, DSc S.Yuldashev taqrizi asosida

IJTIMOYIY TADBIRKORLIKNI FUQAROLIK JAMIYATINING BARQAROR INSTITUTI SIFATIDA

Annotatsiya

Mazkur maqolada ijtimoiy tadbirkorlikning fuqarolik jamiyati instituti sifatidagi ijtimoiy-falsafiy mohiyati va rivojlanish tendensiyalari tahlil qilinadi. Tadqiqotda ijtimoiy tadbirkorlikning shakllanish omillari, uning fuqarolik jamiyati institutlari tizimidagi o'zini hamda ijtimoiy muammolarni hal etishdagi imkoniyatlari yoritilgan. Shuningdek, ijtimoiy tadbirkorlikning ijtimoiy innovatsiyalar, fuqarolik faolligi va barqaror rivojlanish bilan bog'liqligi ochib berilgan. Tadqiqot natijasida ijtimoiy tadbirkorlikni fuqarolik jamiyatining barqaror instituti sifatida rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: ijtimoiy tadbirkorlik, fuqarolik jamiyati, ijtimoiy innovatsiya, ijtimoiy mas'uliyat, barqaror rivojlanish, fuqarolik faolligi, ijtimoiy kapital, ijtimoiy institut.

SOCIAL ENTREPRENEURSHIP AS A SUSTAINABLE INSTITUTION OF CIVIL SOCIETY

Annotation

This article analyzes the socio-philosophical essence of social entrepreneurship as an institution of civil society and examines its development trends. The study explores the factors influencing the formation of social entrepreneurship, its role within the system of civil society institutions, and its potential for addressing social problems. Particular attention is paid to the relationship between social entrepreneurship, social innovation, civic engagement, and sustainable development. The findings substantiate the priority directions for strengthening social entrepreneurship as a sustainable institution of civil society.

Keywords: social entrepreneurship, civil society, social innovation, social responsibility, sustainable development, civic engagement, social capital, social institution.

СОЦИАЛЬНОЕ ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСТВО КАК УСТОЙЧИВЫЙ ИНСТИТУТ ГРАЖДАНСКОГО ОБЩЕСТВА

Аннотация

В данной статье анализируется социально-философская сущность социального предпринимательства как института гражданского общества и тенденции его развития. Исследуются факторы формирования социального предпринимательства, его место в системе институтов гражданского общества и возможности решения социальных проблем. Особое внимание уделяется взаимосвязи социального предпринимательства с социальными инновациями, гражданской активностью и устойчивым развитием. В результате исследования обоснованы приоритетные направления развития социального предпринимательства как устойчивого института гражданского общества.

Ключевые слова: социальное предпринимательство, гражданское общество, социальные инновации, социальная ответственность, устойчивое развитие, гражданская активность, социальный капитал, социальный институт.

Kirish. Zamonaviy jamiyat taraqqiyoti sharoitida fuqarolik jamiyati institutlarining samarali faoliyat yuritishi ijtimoiy barqarorlik, iqtisodiy rivojlanish va aholi farovonligini ta'minlashning muhim omillaridan biri hisoblanadi. So'nggi yillarda dunyo miqyosida davlat, biznes va fuqarolik jamiyati o'rtasidagi hamkorlikning yangi shakllari shakllanib, ular orasida ijtimoiy tadbirkorlik alohida ahamiyat kasb etmoqda. Ijtimoiy tadbirkorlik nafaqat iqtisodiy foyda olishga, balki jamiyatda mavjud ijtimoiy muammolarni hal etishga, aholining zaif qatlamlarini qo'llab-quvvatlashga hamda ijtimoiy adolat va birdamlikni mustahkamlashga qaratilgan faoliyat turi sifatida e'tirof etilmoqda.

Globalashuv, urbanizatsiya va raqamli transformatsiya jarayonlari natijasida jamiyat oldida yangi ijtimoiy muammolar paydo bo'lmoqda. Ishsizlik, kambag'allik, nogironligi bo'lgan shaxslarni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash, ekologik muammolar va ijtimoiy tengsizlik kabi masalalarni hal etishda an'anaviy davlat mexanizmlarining imkoniyatlari ayrim hollarda yetarli bo'lmay qolmoqda. Shu sababli fuqarolik jamiyatining innovatsion institutlari sifatida ijtimoiy tadbirkorlik subyektlarining roli

tobora ortib bormoqda. Ular biznes tamoyillari asosida faoliyat yuritgan holda, o'z daromadlarini ijtimoiy maqsadlarni amalga oshirishga yo'naltirishi bilan boshqa tadbirkorlik shakllaridan farqlanadi.

Ijtimoiy tadbirkorlik fuqarolik jamiyatining muhim instituti sifatida jamiyat a'zolarining tashabbuskorligini, ijtimoiy mas'uliyatini va fuqarolik faolligini rivojlantirishga xizmat qiladi. Ushbu faoliyat turi davlat va xususiy sektor o'rtasida ko'prik vazifasini bajarib, ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish sifatini oshirish, yangi ish o'rinlari yaratish va mahalliy hamjamiyatlarning barqaror rivojlanishiga ko'maklashadi. Ayniqsa, zamonaviy demokratik jamiyatlarda ijtimoiy tadbirkorlik ijtimoiy kapitalni shakllantirish, fuqarolarning o'z muammolarini mustaqil hal qilish salohiyatini kuchaytirish va jamoatchilik nazoratini rivojlantirishning muhim vositasi sifatida qaralmoqda.

O'zbekiston sharoitida ham fuqarolik jamiyatini rivojlantirish, aholining ijtimoiy faolligini oshirish va tadbirkorlik tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. So'nggi

yillarda nodavlat notijorat tashkilotlari, mahalla institutlari va ijtimoiy yo'naltirilgan tadbirkorlik subyektlari faoliyatini qo'llab-quvvatlashga qaratilgan islohotlar amalga oshirilmoqda. Bu esa ijtimoiy tadbirkorlikni fuqarolik jamiyatining barqaror instituti sifatida ilmiy jihatdan o'rganish zaruratini yanada kuchaytiradi.

Mazkur tadqiqotning maqsadi ijtimoiy tadbirkorlikning fuqarolik jamiyati tizimidagi o'rni va ahamiyatini ijtimoiy-falsafiy nuqtai nazardan tahlil qilish, uning barqaror institut sifatidagi xususiyatlarini aniqlash hamda jamiyat rivojlanishidagi funksional imkoniyatlarini yoritishdan iborat.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Zamonaviy jamiyat taraqqiyoti sharoitida ijtimoiy muammolarni hal etishning yangi mexanizmlarini izlash dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Aholi bandligini ta'minlash, kambag'allikni qisqartirish, imkoniyati cheklangan shaxslarni qo'llab-quvvatlash, ekologik muammolarni bartaraf etish va mahalliy hamjamiyatlarni rivojlantirish kabi masalalar davlat va fuqarolik jamiyati institutlarining hamkorligini talab etadi. Shu nuqtai nazardan ijtimoiy tadbirkorlik jamiyat ehtiyojlari va iqtisodiy imkoniyatlarini uyg'unlashtiruvchi samarali institut sifatida namoyon bo'lmoqda [1].

Ijtimoiy tadbirkorlik iqtisodiy faoliyat orqali ijtimoiy muammolarni hal qilishga qaratilgan faoliyat shakli bo'lib, uning asosiy maqsadi maksimal foyda olish emas, balki ijtimoiy qiymat yaratishdan iboratdir [2]. Mazkur faoliyat fuqarolik jamiyatining mustahkamlanishiga, fuqarolarning ijtimoiy faolligini oshirishga va ijtimoiy mas'uliyat madaniyatini rivojlantirishga xizmat qiladi.

So'nggi yillarda O'zbekistonda ham ijtimoiy tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan huquqiy va institutsional mexanizmlar shakllanmoqda. Bu esa mazkur fenomenni fuqarolik jamiyatining barqaror instituti sifatida ilmiy jihatdan tadqiq etish zaruratini kuchaytirmoqda.

Tadqiqot davomida tizimli yondashuv, institutsional tahlil, qiyosiy tahlil, aksiologik va ijtimoiy-falsafiy umumlashtirish metodlaridan foydalanildi. Ijtimoiy tadbirkorlikning nazariy asoslari, fuqarolik jamiyati institutlari haqidagi ilmiy qarashlar hamda xalqaro tajribalar tahlil qilindi. Shuningdek, ijtimoiy tadbirkorlikning jamiyat taraqqiyotidagi o'rni, uning fuqarolik jamiyati institutlari bilan o'zaro aloqasi hamda ijtimoiy kapitalni shakllantirishdagi ahamiyati konseptual jihatdan o'rganildi.

Natijalar va muhokama. Ijtimoiy tadbirkorlikning ijtimoiy-falsafiy mohiyati. Ijtimoiy tadbirkorlik iqtisodiy va ijtimoiy maqsadlarning uyg'unlashuvi asosida shakllanuvchi faoliyat turidir. Uning markazida inson manfaatlarini, ijtimoiy adolat va jamiyat farovonligini ta'minlash g'oyalari turadi [3].

An'anaviy biznesning asosiy maqsadi iqtisodiy foyda olish bo'lsa, ijtimoiy tadbirkorlik ijtimoiy muammolarni hal etish orqali ijtimoiy qiymat yaratishga yo'naltiriladi. Shu sababli ijtimoiy tadbirkorlik zamonaviy fuqarolik jamiyatining muhim tarkibiy elementi sifatida namoyon bo'ladi. Ijtimoiy-falsafiy nuqtai nazardan ijtimoiy tadbirkorlik insonparvarlik, hamjihatlik va ijtimoiy mas'uliyat tamoyillariga asoslanadi. U iqtisodiy samaradorlik bilan bir qatorda ijtimoiy manfaatlarini ham ko'zda tutadi.

Fuqarolik jamiyati tizimida ijtimoiy tadbirkorlikning o'rni. Fuqarolik jamiyati davlat va shaxs o'rtasidagi ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi mustaqil institutlar tizimidan iboratdir. Nodavlat notijorat tashkilotlari, jamoat birlashmalari, kasaba uyushmalari va ijtimoiy tadbirkorlik subyektlari fuqarolik jamiyatining muhim institutlari hisoblanadi [4]. Ijtimoiy tadbirkorlikning fuqarolik jamiyatidagi o'ziga xosligi shundaki, u ijtimoiy tashabbuslarni iqtisodiy mexanizmlar orqali amalga oshiradi. Natijada davlat byudjetiga ortiqcha yuk

tushirmagan holda ijtimoiy muammolarni hal etishga ko'maklashadi.

Robert Putnamning ijtimoiy kapital nazariyasiga ko'ra, fuqarolar o'rtasidagi ishonch va hamkorlik jamiyat taraqqiyotining muhim omillaridan biridir [5]. Ijtimoiy tadbirkorlik aynan mana shu ijtimoiy kapitalni shakllantirish va mustahkamlashga xizmat qiladi.

Ijtimoiy tadbirkorlik va ijtimoiy innovatsiyalar. Ijtimoiy tadbirkorlikning muhim xususiyatlaridan biri uning innovatsion xarakterga egaligidir. Ijtimoiy tadbirkorlar mavjud muammolarni hal qilish uchun yangi yondashuvlar va innovatsion mexanizmlarni ishlab chiqadilar. Muhammad Yunus tomonidan ilgari surilgan mikromoliyalashtirish modeli ijtimoiy innovatsiyaning yorqin namunalardan biri hisoblanadi [6]. Ushbu model millionlab aholining iqtisodiy faolligini oshirish va kambag'allikni kamaytirishga xizmat qilgan. Ijtimoiy innovatsiyalar jamiyat ehtiyojlarini samarali qondirish bilan birga fuqarolik jamiyati institutlarining moslashuvchanligini ham oshiradi.

Ijtimoiy tadbirkorlik va barqaror rivojlanish. Barqaror rivojlanish iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik manfaatlarining muvozanatli uyg'unlashuvini nazarda tutadi. Ijtimoiy tadbirkorlik mazkur maqsadlarga erishishning muhim vositalaridan biri hisoblanadi [7]. Ijtimoiy tadbirkorlik subyektlari ekologik muammolarni hal qilish, yoshlar bandligini ta'minlash, ayollar tadbirkorligini rivojlantirish va aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlarini qo'llab-quvvatlashga xizmat qilmoqda. Bu esa ijtimoiy tadbirkorlikni barqaror rivojlanish maqsadlarini amalga oshirishning samarali institutsional mexanizmlaridan biriga aylantirmoqda.

O'zbekistonda ijtimoiy tadbirkorlikni rivojlantirish istiqbollari. Mamlakatimizda fuqarolik jamiyatini rivojlantirish va aholining ijtimoiy faolligini oshirishga qaratilgan islohotlar ijtimoiy tadbirkorlik rivoji uchun qulay sharoit yaratmoqda. Ijtimoiy tadbirkorlikni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari quyidagilardan iborat:

ijtimoiy tadbirkorlikning huquqiy asoslarini takomillashtirish;

ijtimoiy loyihalarni moliyalashtirish mexanizmlarini kengaytirish;

yoshlar va ayollar o'rtasida ijtimoiy tadbirkorlik madaniyatini rivojlantirish;

hududiy ijtimoiy tashabbuslarni qo'llab-quvvatlash; davlat va fuqarolik jamiyati institutlari hamkorligini kuchaytirish [8].

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, ijtimoiy tadbirkorlik fuqarolik jamiyatining iqtisodiy va ijtimoiy funksiyalarini uyg'unlashtiruvchi noyob institut hisoblanadi. U nafaqat iqtisodiy faoliyatni amalga oshiradi, balki ijtimoiy birdamlik, hamkorlik va fuqarolik faolligini rivojlantirishga ham xizmat qiladi.

Zamonaviy globallashtirish sharoitida ijtimoiy tadbirkorlikning ahamiyati yanada ortib bormoqda. Chunki davlat tomonidan mustaqil ravishda hal etilishi qiyin bo'lgan ko'plab ijtimoiy muammolarni fuqarolik tashabbuslari asosida bartaraf etish imkoniyati yuzaga kelmoqda. Ijtimoiy tadbirkorlik fuqarolik jamiyatining barqarorligini ta'minlash, ijtimoiy kapitalni oshirish va innovatsion rivojlanishni qo'llab-quvvatlash orqali jamiyat taraqqiyotining muhim omiliga aylanmoqda.

Xulosa. Tadqiqot natijalari asosida quyidagi xulosalarga kelindi:

ijtimoiy tadbirkorlik fuqarolik jamiyatining muhim va barqaror instituti hisoblanadi;

uning faoliyati iqtisodiy samaradorlik va ijtimoiy manfaatlarining uyg'unlashuviga asoslanadi;

ijtimoiy tadbirkorlik ijtimoiy kapital va fuqarolik faolligini rivojlantirishga xizmat qiladi;

ijtimoiy innovatsiyalarni joriy etish orqali dolzarb ijtimoiy muammolarni hal qilish imkoniyatlarini kengaytiradi;

barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishda muhim institutsional mexanizm vazifasini bajaradi;

O‘zbekistonda ijtimoiy tadbirkorlikni rivojlantirish fuqarolik jamiyatining mustahkamlanishiga xizmat qiladi.

Shunday qilib, ijtimoiy tadbirkorlik fuqarolik jamiyatining iqtisodiy va ma’naviy salohiyatini yuksaltiruvchi, jamiyat manfaatlarini ro‘yobga chiqaruvchi hamda ijtimoiy adolat va barqaror rivojlanishni ta’minlovchi muhim institut sifatida namoyon bo‘ladi.

ADABIYOTLAR

1. Giddens A. The Third Way and Its Critics. – Cambridge: Polity Press, 2000.
2. Dees J.G. The Meaning of Social Entrepreneurship. – Stanford University, 2001.
3. Bornstein D. How to Change the World: Social Entrepreneurs and the Power of New Ideas. – New York: Oxford University Press, 2007.
4. Tocqueville A. Democracy in America. – Chicago: University of Chicago Press, 2002.
5. Putnam R.D. Making Democracy Work: Civic Traditions in Modern Italy. – Princeton: Princeton University Press, 1993.
6. Muhammad Yunus. Building Social Business. – New York: Public Affairs, 2010.
7. Sen A. Development as Freedom. – New York: Alfred A. Knopf, 1999.
8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmoni. PF–158-son. “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi. 11.09.2023.
9. North D.C. Institutions, Institutional Change and Economic Performance. – Cambridge: Cambridge University Press, 1990.
10. Bourdieu P. The Forms of Capital. – New York: Greenwood Press, 1986.